

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ,
НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

УНИВЕРСИТЕТ МАМУНА



ФАКУЛЬТЕТ ФИЛОЛОГИИ

КАФЕДРА РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

МАТЕРИАЛЫ

Республиканской научно-практической конференции

**РУССКИЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА В
УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ,
ИННОВАЦИИ И КУЛЬТУРНЫЙ
ДИАЛОГ
24 ЯНВАРЯ 2026 ГОДА**

ХИВА – 2026

UO‘K: 65(076.1)(089)

КВК : 27.8ya5

Русский язык и литература в Узбекистане: традиции, инновации и культурный диалог. Сборник статей по итогам Республиканской научно-практической конференции (Хорезм, Хива, 24 января 2026 года). – Хива: Университет Мамун, 2026. – стр.

Сборник научных статей отражает широкий спектр актуальных проблем современной русской филологии, методики преподавания и межкультурного взаимодействия. В статьях первой секции рассматриваются вопросы языковой политики, специфика билингвального образования, учебно-методическое обеспечение, а также проблемы мотивации обучающихся и формирования языковой личности в многоязычной среде. Во второй секции авторы анализируют сочетание классических методик с современными педагогическими технологиями, подчеркивая значимость преемственности и адаптации мирового опыта к национальному контексту. В центре внимания третьей секции электронные образовательные ресурсы, дистанционное обучение, мультимедийные тексты и возможности цифровой среды для развития коммуникативных и аналитических навыков обучающихся. Четвертая секция охватывает вопросы современного русского языка, текстовой интерпретации, междисциплинарных исследований и новых направлений филологического анализа. В пятой секции рассматриваются перспективы развития русской филологии в Республике Узбекистан, ее роль в укреплении культурного диалога, межнационального согласия и международного научного сотрудничества. Сборник адресован филологам, преподавателям, аспирантам, студентам и всем, кто интересуется проблемами русского языка и литературы в контексте современного образовательного и культурного развития.

ISBN: 978-9910-9568-0-8

Рецензенты:

Чупонов О.О. - DSc, доцент кафедры русского языка и литературы УрГУ

Рузметов С.А. - PhD, доц. кафедры русского языка и литературы УТУ «RANCH»

Редакционная коллегия:

Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна – кандидат филологических наук, доцент кафедры русского языка и литературы университета Маъмуна

Матназаров Жавланбек Кабулович - PhD., доцент кафедры узбекского и восточных языков университета Маъмуна

Сапарова Мохира Файзуллаевна – PhD., и.о. доцента кафедры западных языков и литературы университета Маъмуна

©Ma'mun universiteti, 2026

©“QAL'A” nashriyoti, 2026

Oxford Advanced Learner's Dictionary lug'atida esa "yumor – biror narsadagi uni kulgili yoki qiziqarli qilib ko'rsatadigan sifat, kulgili narsalarga kulish qobiliyati" deya izoh beriladi.

Neft bazasi direktori haydovchisidan:

– Mashinada benzin bormi? - deya so'rabdi.

Haydovchi:

– Bak to'la - deb javob beribdi.

Direktor hayron bo'lib:

– Qiziq, nega bo'lmasa odamlar benzin yo'q, deya shov-shuv ko'tarib yurishibdi?!

Yuqoridagi fikrlar asosida "hajv" tushunchasining qadimiy kelib chiqishiga qaramay, u zamon bilan birga rivojlanib nafaqat kulgili, balki ijtimoiy tanqid vositasi sifatida shakllangani aytish mumkin. Hajviy matnlar nafaqat kulgi, balki chuqur ma'no va maqsadni o'zida jamlagan holda, og'zaki va yozma adabiyotning muhim janri sifatida rivojlanib kelmoqda. O'zbek va xorij olimlarining tadqiqotlari ham shuni ko'rsatadiki, hajv nafaqat kulgili ifoda, balki murakkab lingvistik, psixologik va madaniy hodisa sifatida o'rganilishi zarur. Shuning uchun ham hajviy matnlar tahlil qilinayotganda, ularning nafaqat kulgili, balki o'tkir ijtimoiy xarakterga ega ekanligini hisobga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Словарь иностранных слов. Гос.издательство иностр.и нац.словарей, Москва, 1955,стр.680
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002 й. 61-бет
3. А.Мамажонов, М.Абдупаттоев, Матн назарияси. Фарғона-2016
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Тошкент – 2006, 557- бет.
5. Ҳақимов М.Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: филол. фан.н-ди...дисс. –Тошкент, 1994. –168 б.
6. Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн синтаксиси. – Фарғона: ФарДУ нашри, 2002. – Б. 4-25.
7. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси.-Тошкент, Фан, 2008. – Б.159.
8. Йўлдошев У. Бадий таржиманинг лингво-стилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Самарқанд: – “Самарқанд давлат чет тиллар институти” нашриёти, 2022. – 170 бет.
9. Suvonqulov B.M. O'zbek xalq latifalarining janr xususiyatlari. Filol.fan.nom....diss.avto-ref. –Т., 2008. –В.13.

ARAB TILIDA VAQT LEKSEMALARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Muhabbat Usmonova,
Oriental universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi kechki ta'lim
shakli 5-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Sirojiddin Sotvoldiyev,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi dotsenti v.b.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilida vaqt tushunchasining, xususan kunduz va tun bilan bog‘liq leksik birliklarning semantik, kognitiv va poetik xususiyatlari yoritilgan. Vaqt inson ongida bevosita sezilmaydigan, ammo til orqali shakllanadigan abstrakt hodisa sifatida qaraladi. Arab tilining boy leksik tizimi vaqtni yagona, umumiy birlik sifatida emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanadigan murakkab konsept sifatida ifodalashini ko‘rsatadi. Maqolada klassik va poetik matnlar asosida kunduz va tunning turli bosqichlarini anglatuvchi leksik birliklar tahlil qilinib, ularning lug‘aviy ma‘nosi bilan kontekstual, ramziy va badiiy yuklamasi o‘rtasidagi farqlar ochib beriladi. Fe‘l zamonlari va vaqt leksemalari o‘rtasidagi munosabat Tamom Hassonning ma‘no–shakl birligi nazariyasi asosida izohlanadi. Tahlil natijalari arab tilida vaqt faqat grammatik kategoriya emas, balki inson hayoti, harakat, sinov, umid va taqdir bilan uzviy bog‘langan semantik maydon ekanini ko‘rsatadi. Kunduz leksemalarining mehnat, ochiqlik va qarorlar bilan, tun birliklarining esa ichki kechinma, sokinlik va yashirinlik bilan bog‘lanishi arab poetik tafakkurida vaqtning baholovchi va konseptual vosita sifatida faol ishlatilishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: arab tilida vaqt, kunduz va tun leksikasi, poetik semantika, vaqt konsepti, kognitiv lingvistika, badiiy nutq.

Zamonaviy lingvistika doirasida vaqt tushunchasi kognitiv va semantik nuqtayi nazardan faol tadqiq qilinmoqda. Vaqt inson ongida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sezilmaydigan, biroq tajriba orqali idrok etiladigan abstrakt hodisa bo‘lgani uchun u til orqali konseptual shakl kasb etadi. Arab tilida vaqtni ifodalovchi leksemalar ushbu abstrakt hodisani konkret obrazlar, metaforalar va ramziy vositalar orqali anglash imkonini beradi. Ayniqsa, badiiy va poetik nutqda vaqt tushunchasi inson hayoti, taqdir, o‘tkinchilik, sinov va umid kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘lanadi. Shu jihatdan vaqt leksikasining badiiy nutqdagi funksiyalarini o‘rganish adabiyotshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtadagi dolzarb masalalardan biridir.

Arab adabiy an‘analarida vaqt tushunchasi keng falsafiy mazmunga ega. Qadimgi arab she‘riyatida zamon va dahr ko‘pincha inson taqdiriga ta‘sir etuvchi kuch sifatida talqin qilinadi, tun va kunduz esa hayotning turli bosqichlari va ruhiy holatlarini ifodalovchi ramzlarga aylanadi. Klassik she‘riy matnlarda tun yolg‘izlik, iztirob va mulohaza vaqti sifatida, tong esa umid va yangilanish ramzi sifatida tasvirlanadi. Bu holat vaqt leksemalarining semantik yuklamasi kontekstga qarab keskin o‘zgarishini ko‘rsatadi. Shu bois vaqtni ifodalovchi leksemalarni badiiy nutqdan ajratib, faqat lug‘aviy ma‘no doirasida talqin qilish ularning real funksional imkoniyatlarini to‘liq ochib bera olmaydi.

Arab tili grammatik an‘anasida vaqt tushunchasining asosiy ifoda vositasi fe‘l hisoblanadi. Fe‘l shakllari orqali harakatning vaqt bilan bog‘liqligi, uning sodir bo‘lish nuqtasi va davomiylik xususiyatlari belgilanadi. Klassik nahv tasnifiga ko‘ra, arab tilida fe‘l zamonlari uch asosiy shakl orqali ifodalanadi: moziy (o‘tgan zamon), mudoriy (hozirgi va kelasi zamonni qamrab oluvchi shakl) va amr (buyruq shakli). Ushbu uchlik arab grammatik tizimining tayanch unsuri bo‘lib, zamonning morfologik ifodasini belgilab beradi. Biroq zamonni faqat ushbu shakllar bilan cheklash arab tilidagi real nutq jarayonida yuzaga keladigan semantik murakkabliklarni to‘liq yoritib bera olmaydi.

Klassik arab grammatikasida fe'l zamonlari, avvalo, fe'l shakllari orqali belgilanadi. Ushbu tasnifda vaqtni ifodalovchi leksemalar — الآن (al-'ān, "hozir"), أمس ('ams, "kecha"), غداً (ġadan, "ertaga"), حين (hīn, "payt"), وقت (waqt, "vaqt") va shu kabilar — fe'l zamonini aniqlovchi asosiy vosita emas, balki qo'shimcha aniqlashtiruvchi unsur sifatida qaraladi. Tamom Hasson bu yondashuvni metodologik jihatdan cheklangan deb hisoblaydi, chunki u real nutqdagi zamon talqinini to'liq tushuntirib bera olmaydi.

Tamom Hasson nazariyasining markazida tilning ma'no-shakl (al-ma'nā wa-l-mabnā) birligi turadi. Unga ko'ra, grammatik shakl o'z-o'zicha zamon ma'nosini qat'iy belgilamaydi. Fe'l shakli faqat ma'lum semantik imkoniyatlarni ochadi, zamonning aniq talqini esa nutq jarayonida, kontekst orqali yuzaga chiqadi. Shu sababli fe'l zamonlarini aniqlashda vaqtni ifodalovchi leksemalar ikkilamchi emas, balki markaziy semantik indikator vazifasini bajaradi [Hasson, 1994, 55-b.].

Kunduzni ifodalovchi leksik birliklar arab tilining poetik tizimida vaqt tushunchasini shakllantiruvchi muhim semantik qatlamlardan birini tashkil etadi. Ushbu birliklar kunduzni faqat tabiiy vaqt oralig'i sifatida emas, balki harakat, faoliyat, oshkoralik, kuch va qarorlar bilan bog'liq konsept sifatida ifodalaydi. Arab poetik diskursida kunduz ko'pincha kecha va zulmat bilan qarama-qarshi qo'yilib, semantik oppozitsiya asosida ma'no hosil qiladi. Natijada kunduz yorug'lik va aniqlik ramzi bo'lish bilan birga, ba'zan xavf, to'qnashuv va sinov maydoni sifatida ham talqin qilinadi.

Kunduzga oid leksik birliklarning semantik doirasi kontekstga qarab kengayib, ularning lug'aviy ma'nosi poetik nutqda yangi funksional yuk bilan boyiydi. Ayrim birliklar kunduzni g'alaba va qudrat vaqti sifatida tasvirlasa, boshqalari ochiqlikdagi ojizlik, taqdiriy qarorlar va muqarrar to'qnashuvlar bilan bog'lanadi. Bu holat kunduz tushunchasining statik emas, balki dinamik va ko'p qatlamli semantik tuzilma ekanini ko'rsatadi. Kunduz bilan bog'liq birliklar ko'pincha fe'llar, sifatlilar va majoziy ifodalar bilan birikib, vaqtning harakatdagi, voqealar rivojiga ta'sir qiluvchi omil sifatida idrok etilishiga xizmat qiladi.

الإسْفَارُ Isfār – "tong yorishgan paytga kirdi" [Al-Qomus, 2-j., 2017, 526-b.]; tong vaqtining eng dastlabki bosqichini ifodalovchi leksema bo'lib, u tun tugab, lekin kun hali to'liq boshlanmagan paytni bildiradi. Bu so'z vaqtni keskin o'zgarish sifatida emas, balki asta-sekin o'tish jarayoni sifatida belgilaydi. Isfārda qorong'ilik hali butunlay yo'qolmagan, biroq uning hukmi tugagan bo'ladi. Shu bois "أسفر الصبح" deyilganda, vaqt nuqtasi emas, balki vaqtning ochilishi nazarda tutiladi.

الإشْرَاقُ Ishrāq – "qizardi, qip-qizardi" [Al-Qomus, 2-j., 2017, 629-b.]; tong vaqtining keyingi bosqichi bo'lib, u yorug'likning aniq ustunlikka chiqishini anglatadi. Bu leksema vaqt jihatidan "isfār"dan keyin keladi va tongning faol, hukmron pallasini bildiradi. "أشرقت الشمس" iborasida vaqt endi noaniq emas, u aniq boshlangan, kun o'z kuchini ko'rsatmoqda.

"Afrāt as-subḥ" tongning ilk darakchilari iborasi tongdan oldingi vaqt belgilarini ifodalaydi. Bu leksema hali tong kirib kelmagan, ammo vaqt o'zgarishi yaqinlashgan pallani bildiradi.

الأقْرَحُ Aqrah – “zulmat ichidagi oqlik” [Al-Qomus, 3-j., 2019, 766-b.]; vaqt jihatidan tongning juda tor, qisqa va o‘tkinchi lahzasini bildiradi. Bu so‘z zulmat ichida paydo bo‘lgan ilk vaqt yorig‘ini anglatadi.

الْفَتْقُ Fatq – “otayotgan tong, tong otishi” [Al-Qomus, 3-j., 2019, 503-b.]; vaqtning ochilishi, uzluksiz davom etib kelgan tunning yorilib, yangi vaqt bosqichiga o‘tishi demakdir. Bu leksema tongning paydo bo‘lishini emas, balki vaqtning ichki parchalanishini bildiradi.

الْبَرِيمُ Barīm – “qorong‘ilik orasidagi quyosh nuri” [Al-Qomus, 1-j., 2017, 165-b.]; tong vaqtining eng murakkab holatini bildiradi. Bu leksema tun va kun ranglari qorishgan, vaqt jihatidan aniq bo‘lmagan oraliq bosqichni ifodalaydi.

الْبُكْرَةُ “Bukra” – “erta tong, tong sahar, quyosh chiqmasdan oldingi payt” [Al-Qomus, 1-j., 2017, 205-b.]; bu leksema arab tilida vaqtning eng oldingi qismi, ya‘ni bir ish yoki hodisaning boshlanish nuqtasini bildiradi. “بكر إلى الشيء” deyilganda, ishga boshqalardan oldin kirishish, vaqt jihatidan ilgarilab ketish ma‘nosi anglashiladi. Lug‘aviy jihatdan “البكرة” kunduzning avvali, tongdan keyingi ilk vaqt kesimi bo‘lib, u aniq vaqt nuqtasi emas, balki ma‘lum davomiylikka ega bo‘lgan vaqt oralig‘idir. Demak, bukra — tongdan keyingi eng barqaror vaqt bosqichi.

الْبَلَجُ “Balaj” – “porlash, yarqirash” [Al-Qomus, 1-j., 2017, 208-b.]; ushbu so‘z ildiziga oid leksemalar vaqtning yorishib, aniq ko‘rina boshlagan bosqichini bildiradi. “بلج الصبح” deyilganda tongning endi shubhasiz ravishda paydo bo‘lgani, yorug‘lik zulmatdan ajralib chiqqani nazarda tutiladi. Bu leksema “isfār” va “aqrah”dan keyingi bosqichga yaqin bo‘lib, vaqt endi noaniq emas, ko‘z bilan farqlanadigan holatga kelganini anglatadi.

Tun bilan bog‘liq leksik birliklarning semantik doirasi keng bo‘lib, ular tunning turli bosqichlarini, holatlarini va intensivlik darajalarini ifodalaydi. Tun boshlanishi, chuqur qismi va tongga yaqin davrini anglatuvchi birliklar vaqtning uzluksizligi va ichki dinamikasini ko‘rsatadi. Bu birliklar ko‘pincha fe‘llar, sifatlar va majoziy ifodalar bilan birikib, tunning statik holat emas, balki o‘zgarib boruvchi jarayon sifatida idrok etilishiga xizmat qiladi. Shu orqali tun poetik nutqda voqealar rivojlanadigan, his-tuyg‘ular chuqurlashadigan va yashirin ma‘nolar yuzaga chiqadigan makon sifatida shakllanadi.

الْإِنَاءُ / الْإِنَاءَةُ “Inā” leksemasi aslida yig‘ish va jamlash ma‘nosini bildiradi. Tun vaqtiga nisbatan u tun ichidagi ma‘lum bir soat yoki bo‘lakni anglatadi. Lug‘atda “وهو من الليل ساعة أو وقت” deb aniqlanishi, tunning uzluksiz qorong‘ulik emas, balki bo‘laklarga bo‘linadigan vaqt sifatida tasavvur qilinganini ko‘rsatadi.

الْأَسْحَمُ “Asham” rangga oid sifat bo‘lib, vaqtga nisbatan tun qorong‘uligining kuchaygan pallasini bildiradi. Lug‘atda “الأسود” deyiladi va aynan shu ma‘no bilan tun uchun ishlatiladi.

الْأَعْضَفُ “A’daf” “zulmat qopladi” [Al-Qomus, 3-j., 2019, 452-b.] zaiflashish va egilish ma‘nolariga ega bo‘lib, tun vaqtida charchoq va quvvatning sinishi seziladigan pallani bildiradi. Lug‘aviy izohda “الأعصف: الليل إذا أظلم” deyiladi, ya‘ni tun qorong‘iligi chuqurlashganda keladigan holat.

الْجِزْعَةُ “Jiz’a” “kechaning bir qismi” [Al-Qomus, 1-j., 2017, 420-b.] lug‘aviy jihatdan bo‘lak degani. Tun uchun ishlatilganda u tun ichidagi har qanday

ajratilgan bo‘lakni bildiradi. “مضت جزءاً من الليل” iborasi tunning bir qismi o‘tganini anglatadi. Demak, *jiz’a* — tunning hisoblanadigan segmenti.

الجَوْشَنُ “Jawshan” “tun o‘rtasi yoki boshi” [Al-Qomus, 1-j., 2017, 434-b.] aslida ko‘krak va o‘rta qism ma’nosini bildiradi. Tun vaqtida esa u tun o‘rtasi, eng markaziy va chuqur pallasini anglatadi.

الدُّهْلُ “Duhl” “kechaniq bir bo‘lagi” [Al-Qomus, 2-j., 2017, 139-b.] yashirinlik va sirli bo‘shliq ma’nosiga ega. Tun vaqtida u tun ichidagi noma’lum, sezilmay o‘tgan soatni bildiradi. Lug‘atda “مضى دُهْلٌ من الليل” deyiladi. Demak, *duhl* — tunning sezilmas va jim o‘tgan bo‘lagi.

الجَرْشُ “Jarsh” “kechaniq oxiri” aslida archish ma’nosiga ega bo‘lsa-da, vaqtga nisbatan tun boshidagi yoki oxiridagi qisqa bosqichni bildiradi. “هو ما بين أول” deyilishi bu leksemaniq aniq vaqt oralig‘ini ifodalashini ko‘rsatadi. Demak, *jarsh* — tunning ilk kirish bosqichi yoki oxirgi uchdan biri.

الرَّوْقُ “Rawq” ravshanlik va ochilish ma’nosiga ega bo‘lib, tun vaqtida tun ichidagi yengilroq, yorug‘roq bo‘lakni bildiradi.

Tahlil jarayonida tongdan kunduzning oxirigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ini ifodalovchi 48 ta mustaqil leksema aniqlanib, ularning har biri ma’lum semantik bosqichni ifodalashi ma’lum bo‘ldi. Bu holat arab tilida kunduz tushunchasi umumiy birlik bilan emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanadigan murakkab vaqt tizimi sifatida konseptualizatsiya qilinganini ko‘rsatadi.

Tahlil qilingan materiallar kunduz bilan bog‘liq birliklar ko‘pincha mehnat, harakat, ochiqlik, sinov, qaror va qudrat kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘langanini ko‘rsatdi. She’riy va paremiologik kontekstlarda kunduz ba’zan ijobiy, ba’zan esa xavf va ochiqlikdagi o‘zlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Demak, kunduz leksemalari vaqtni baholash vositasi sifatida faol ishlatiladi.

Adabiyotlar

1. Al-Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. [Matn] J. 1. / Tuzuvchilar: N. Ibrohimov [va boshq.]. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017. -848 b.
2. Al-Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. [Matn] J. 2. / Tuzuvchilar: N. Ibrohimov [va boshq.]. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017. -896 b.
3. Al-Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. [Matn] J. 3. / Tuzuvchilar: N. Ibrohimov [va boshq.]. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2019. -912 b.
4. Al-Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. [Matn] J. 4. / Tuzuvchilar: N. Ibrohimov [va boshq.]. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. -800 b.
5. Hasson Tamom. Al-lughatu-l-arabiyya: ma’aniha va mabnaha. -Qohira: Alamu-l-kitab, 1994. – 246 b.

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MATN VA MEDIAMATNNING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI

*Usmonova Umida Baxtiyorovna
Jizzax DPU Ingliz tili kafedrasi
dotsent v.b., f.f.f.d.(PhD).*